



PREZIDENT TA'LIM
MUASSASALARI
AGENTLIGI



**“XX ASR VA ZAMONAVIY
ADABIYOT:
TAHLIL VA TALQIN MASALALARI”**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari*

2022-yil 19-may

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**O'ZBEKISTON XALQ SHOIRI,
“EL-YURT HURMATI” ORDENI SOHIBASI
HALIMA XUDOYBERDIYEVA
TAVALLUDINING 75 YILLIGIGA BAG'ISHLANADI**

XX ASR VA ZAMONAVIY ADABIYOT: TAHLIL VA TALQIN MASALALARI

(Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari)

2022-yil 19-may

Guliston – 2022

Konferensiya materiallari: maqolalar, tezislar. XX asr va zamonaviy adabiyot: tahlil va talqin masalalari. / – G.; «Sirdaryo print», 2022 – 196 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston xalq shoiri, “El-yurt hurmati” ordeni sohibasi Halima Xudoyberdiyeva tavalludining 75 yilligi munosabati bilan Prezident ta’lim ta’lim muassasalar agentligi tizimidagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod mакtabida Guliston davlat universiteti bilan hamkorlikda 2022-yil 19-may kuni bo‘lib o‘tgan “XX asr va zamonaviy adabiyot: tahlil va talqin masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga taqdim etilgan maqola va tezislardan iborat.

Konferensiya materiallarida Halima Xudoyberdiyeva she’riyatining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga ta’siri, shoira ijodiy merosining badiiy-estetik tafakkur takomilidagi o‘rnii, asarlarining til xususiyatlari, mumtoz va zamonaviy adabiyotga oid masalalar qamrab olingan.

To‘plam soha mutaxassislari, filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba va magistrlar, doktorantlar hamda o‘zbek tili va adabiyot o‘qituvchilari uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

TAHRIR HAY’ATI:

| | |
|---------------|---|
| M.Mamatqulov, | filologiya fanlari doktori, dotsent |
| F.Sharirov, | filologiya fanlari doktori, dotsent |
| V.Rahmonov, | filologiya fanlari nomzodi, dotsent |
| J.Abdullayev, | filologiya fanlari nomzodi, dotsent |
| I.Ermatov, | filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |
| G.Qo‘lyiyeva, | filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |
| A.Axrarov, | filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |

Mas’ul muharrir:

O.Fayzullayeva,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Pokiza Axmedjanova,

Prezident ta’lim muassasalar agentligi tizimidagi
Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod mакtabi direktori

Tursunoy Mamatxalikova,

Prezident ta’lim muassasalar agentligi tizimidagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod mакtabi ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Xusniddin Xaitov,

Prezident ta’lim muassasalar agentligi tizimidagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod mакtabi o‘qituvchisi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

Shoxsanam Qarshiyeva,

Prezident ta’lim muassasalar agentligi tizimidagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod mакtabi oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

*Guliston davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasи yig‘ilishining
2022-yil 21-apreldagi 9-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

Guliston, 2022

4-SHO‘BA: HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODI VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI MASALALARI

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE’RIYATINING TIL XUSUSIYATLARI TAHLILI (fe’l so‘z turkumi misolida)

**Yusupova Dildora Yunus qizi,
BuDU O‘zbek tilshunosligi
kafedrasi doktoranti**

Haqiqiy shoirlikda hech bir so‘z, til birligi shunchaki ermak yoki matnni to‘ldirish, butlash uchun ishlatalishi mumkin emas. Hatto oddiy nutq tovushini ham, bo‘g‘in, so‘z, so‘zshakl, ibora, izofa, gapni ham uning o‘z ma’no tovlanishiga, qiymatiga ko‘ra qo‘llash joiz bo‘ladi. Shundagina tilning har fonetik, morfologik, leksik-semantik, sintaktik birligi o‘z o‘rniga maqsadga muvofiq tushgan poetik talqin vositasiga aylanadi; joziba kasb etadi; o‘quvchi ruhiyatini she’r olamiga bog‘lab oladi. Halima Xudoyberdiyeva she’riyati bu yuksak talablarning milliy adabiyotimizdagi o‘ziga xos amaliy ko‘rinishi bo‘lgan adabiy hodisadirki, u lingvopoetik tadqiqda yanada ko‘proq qirralarini namoyon etaveradi.

Fonetik, leksik, frazeologik vositalar kabi grammatik vositalar ham tilning stilistik aktualizatsiyasida keng qo‘llaniladi. Nutq jarayonida grammatik sinonimiya qatoridagi nisbatan qulay variantlarni ajratish zarurati tug‘iladiki, bu narsa grammatik vositalarni umumiy stilistika fonida o‘rganishni taqozo etadi. Shu ma’noda quyidagi tezisni keltirish o‘rinlidir: “... grammatika so‘z, forma va konstruktsiyaning predmet-logik hamda grammatik ma’nosini o‘rgansa, grammatik stilistika ana shu asosiy ma’no ustiga qurilgan ekspressiv, konnotativ ma’nosini yoki uning funksional xususiyatini o‘rganadi” [1,10].

Zero, grammatik vositalarning ko‘plab variantlari mavjudligi, ulardan birini ikkinchisi bilan almashtirish mumkin yoki mumkin bo‘lmassligi grammatik sinonimiyani o‘rganish masalasini keltirib chiqaradi va tadqiqotchidan grammatik vositalarni tahlil qilish jarayonida bu masalalarni diqqat markaziga qo‘yishni talab etadi [2,53].

Fe’l. O‘zbek an’anaviy tilshunosligi fe’lning leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini batafsil o‘rgangan. Bu boradagi ilk ilmiy

tadqiqotlar A.N.Kononov, A.Fulomov, A.M.Shcherbak, A.A.Koklyanova singari turkolog olimlar qalamiga mansub bo'lsa, keyinchalik esa bu kuzatishlar A.X.Sulaymonov, A.Hoziyev, Sh.Shukurov, S.A.Akbarov, T.Xo'jayev, R.Rasulov va boshqalar tomonidan amalga oshirildi. Tabiiyki, bu ishlarda so'zning leksik-grammatik xususiyatlarini, harakatning semantik fragmentini o'rganish birinchi o'ringa qo'yildi. O'ziga xos ma'no guruhlariga, grammatik kategoriyalarga va bevosita sintaktik aloqaga daxldor bo'lgan fe'l o'ziga xos rang-barang stilistik imkoniyatlarga ham ega. (Hazrat Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida 100ta fe'lni chuqur tahlil qilib, "bu turkum so'zlardagi ma'no nozikliklarini ochib bergenligi", o'zbek tilining boy tasviriy imkoniyatlarga ega ekanligini isbotlagani ham bejizga emas.)

O'zbek tilshunosligida fe'lning stilistik imkoniyatlari o'rganishga bag'ishlangan yirik hajmdagi tadqiqotni M.Sodiqova amalga oshirilgan [3].

Fe'lning ma'no guruhlaridan foydalanish. Fe'lning umumiyligi grammatik ma'nosi "ish-harakat va holatni jarayon sifatida ifodalash"; anglatgan qator lug'aviy ma'nolariga ko'ra harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish, holatga xos ruhiy-psixologik, tafakkur bilan bog'liq ma'nolarni yoritishini bilamiz. Shu jihatiga ko'ra fe'llar harakat, holat, nutq, tafakkur fe'llari kabi lug'aviy ma'no guruhlariga bo'linadi.

Shoira ham o'z ijodida ana shu til vositalaridan keng doirada foydalanib, ularni she'rлarining g'oyaviy mazmunini yoritishga, fikrning obrazli-estetik ifodasini ta'minlashga xizmat qildiradi. Jumladan,

Shoira bir to'rtligida buyurokrat rahbar-u rahbarchalarning tazyiqlaridan zada bo'lgan qahramon holatini oddiy harakat fe'llari orqali ta'sirchan yoritadi: *Xushyorlar ko'p tepkiladi. Kirlangan chim men. Xushyorlar ko'p so'roq qilar. Soqov men. Jim men. Agar Xayyom qaytib kelsa do'st tutinardim, Mayxonada sharob bilan yuvinardim men.*

Ijodkor "O'zbekiston" she'rida zalvarli mazmunni nutq fe'llariga yuklaydi: *Navbat berib dedilarki, "O'zbekistan so'zlaydi", So'zla yurtim, meni Sening timsoling dedilarmi? Onam, sening "yuzing"ni deb, ular meni "siz"laydi. Yo'qsa bu g'o'r shoiringni to'sh kurib edilarmi?!*

Holat fe'llari orqali insonga xos inja tuyg'ular, beqiyos holatlar she'riy misralarga tiziadi: *Borimni chuldiriq bolamga tutdim, Ug'il-qiz ko'zimga ko'rinar qantday. Ammo men... Onajon... sizni unutdim, Unutdim qanday?!*

"Alvido deng" she'rida harakat fe'li (to'kilmoq) ko'chma ma'noda holat fe'li vazifasini bajara olgan: *Alvido, yor, to'kilmoqda toqat degan jom, Ketmoq ishqil kuydirmoqda o't bo'lib mani...*

Shoira o'ylamoq, fikrlamoq, xayol surmoq, tafakkur qilmoq, o'yga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq, bir qarorga kelmoq, xulosaga kelmoq kabi tafakkur fe'llarini ham inson ruhiyatining cheki-chegarasi ko'rmas ichkari holatlarini ifodalashga xizmat qildiradi. Jumladan, *Ketdim*, o'yladimki sendan qutildim, Endi sensiz kutgum har tongotarni. Ismingni ko'ksimdan chechakday yuldim, Yorab, chechak shunday ildiz otarmi?

Na ijtimoiy hayotning biror qirrasi, na oddiy insonning biror tashvishi, na tabiat o'zgarishlari, boringki, insonga va uni qurshab turgan borliqqa tegishli bo'lgan nimaki bor ijodkorni befarq qoldirmaydi. Respublika gazetalaridan birida (mustaqilligimizning dastlabki yillarida erkimizni yo'q qilishga uringan voqealar yuz berib turdi, shunday mudhish urinishlardan biri "Andijon voqeasi" haqida) quyidagi xabar bositgan edi: "Andijon shahar klinikasida yotgan 16 yashar Akbarali bunday deydi: "Oilamiz, "Qurshob" sovxoziqa qarashli dalalarda piyoz ekkandi. To'rt xo'jalikda o'n sakkiz kishi edik. O'sha 5-iyun kuni biz to'qayga berkindik. Yarim kechada yashiringan joyimizdan chiqib yo'nga tushdik. Soy bo'yiga chiqqanimizda bizni bosqinchilar ushlab olishdi. Onamning qo'lida ikki yarim yashar ukam bor edi. O'sha ukamni onamning bag'ridan uzishib soyga otib yuborishdi. Onamni ham suvga oqizishdi. Ularning ortlaridan otam, akam o'zlarini suvga otishdi. Oyoqlarimga o'q tegib yiqildim... Onam bilan singlimning haligacha daragi yo'q..." (Gazetadan)

Mash'um xabardan butun borlig'i nafratga to'lган shoira shunday yozadi:

*...Onang oqib baliq bo'ldi, Akbarjon,
Ukang oqib baliq bo'ldi, Akbarjon,
Endi qaydan bo'lsin ular daragi,
Bu ters hukmi xoliq bo'ldi, Akbarjon,
Unutganning kuysin ikki dunyosi!*

*...O'tgan o'tdi. Bo'lmas ortga qaytarib,
Faqat yurak zirq-zirq sanchgan paytlari,
Bu yashinvor chinqiriqli Turonda,
Ota Turkdan tarqalganga aytarim:
"Unutganning kuysin ikki dunyosi!"*

Mana shu "Unutganning kuysin ikki dunyosi" she'rida shoiraning munosabat fe'llaridan foydalanish mahorati po'rtanani yuzaga keltirgan. (Tilimizda erkalamoq, suymoq, yaxshi ko'rmoq, parvona bo'lmoq, rahmi kelmoq, xushomad qilmoq, yon bosmoq, maftun bo'lmoq, e'zozlamoq kabi ijobjiy xarakterdagi; beti qursin, xudo olsin, qorasi o'chsin, baloga giriftor

bo 'lsin, juvonmarg bo 'lgur kabi salbiy xarakterdagi munosabat fe'llari ham mavjud.)

Fe'lning nisbat shakllaridan foydalanish. Halima Xudoyberdieva ijodida harakat va uning bajaruvchisi orasidagi munosabat turlarini ifodalovchi nisbat kategoriyasining uslubiy imkoniyatlari fe'lning boshqa kategoriyalaridagi singari aniq bo'rtib turmaydi. Masalan, *Garchand ketmadi sho 'rimiz, Ochimiz och, to 'qimiz to 'ygan. Bizlar ojiz ona bo 'rimiz, Bolalarin odamlar so 'ygan...*

“Biz ojizmiz” she’ridan olingan parchada, me’yor bo‘yicha kesim vazifasini bajargan fe'l (ega ko‘plikni ifodalagach) birgalik nisbatda berilishi kerak edi, biroq vazn talabiga ko‘ra so ‘ymoq fe’lining aniq nisbatda berilishi ish-harakat bajaruvchilari ko‘pchilik (odamlar) ekanligiga qaramay ifoda mazmuniga deyarli putur yetkazmagan.

Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida ko‘p hollarda poetik obrazning real tasviri o‘zlik nisbat shaklida beriladi. Jumladan, “Mening to‘zmas bol-u parim” she’rida shunday yozadi: *Harchandki kuyib ishlab, yetgan joyi kuyindi, Oftoblari kuydirgich, ko‘kda oyi kuyindi. Jonigacha qardoshga tutgan mo ‘mintoylarim, “O‘zbek ishi”dayin toj, tuhmat tojin kiyindi.*

She’rda aniq bir shaxsning fojiasi haqida emas, balki butun xalq to‘g‘risida mulohaza yuritiladi. Agar bu yerda fe'llar *kuydi, kiydi* shaklida, ya’ni aniq nisbatda berilganida edi, misralarda zalvarli fikrning obrazli ifodasini aniq berish imkonи bo‘lmас edi.

Yana bir misol: *Boshimga urayinmi o ‘tar dunyo shonini, U, kuygan o ‘tlarimda qaytadan kuyayinmi? Guldan baldoqlar taqqan jononlarning jonini Bir siqim tuproq qilgan dunyoni suyayinmi?* (“Faqat...Bobur yig‘lagan” she’ridan)

Shoira she’rlari “men” tilidan aytilib insonga xos tuyg‘ular nazmiy titramalarda, asosan, aniq nisbatdagi fe'llar bilan ifodalangan o‘rinlar anchagina ekanligini kuzatdik. Masalan, *Hozir chetga surib qo ‘ydim, men barcha ishni – O‘qish, ishlash, qor saylining tartibin buzdim. Bu kech daraxt butog‘idan uchmagan qushni, O‘z onamning suratini yurakka chizdim.* (“Onam surati” she’ridan)

Ba’zan kishining jon tomirini zirillatadigan ichki tug‘yonlar majhul nisbatdagi fe'llar orqali ham ifodalanadi: *Sen qaydan bilasan, men ham zor goho, Yostig ‘im ko ‘z yoshdan yuvilganini, Mening bosh egganim – men uchun daho Yigit xayolidan quvilganimni Sen qaydan bilasan??* (“Xayr dedim...” she’ridan)

O‘zbekiston Xalq shoirasi, satrlari qatidan “*Qiynalib yashamoq – yozug ‘im mening*” deya “*Ich-ichida yo ’lbars o ’kirib sirtdan mayin jilmaygan*

ayol' ijodkor Halima Xudoyberdiyeva poeziyasi tili boyligi va jo'shqinligi, xalqchilligi va millatparvarligi, betakror va jarangdorligi bilan; til vositalarining keng va rang-barang stilistik imkoniyatlarini o'ziga xos tovlanishlarda yuzaga chiqara olganligi bilan yuksak baholanishga loyiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Кўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. –165 б.
- 2.Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.– Самарқанд: СамДУ, 2006.
- 3.Садыкова М. Стилистика глагола в современном узбекском литературном языке: автореф.дис. ...д-ра филол.наук. – Т., 1991.–21 с.
- 4.Худойбердиева Х. Сайланма.–Тошкент: Шарқ, 2000.–398 б.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA ADABIY MEROSINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

**Dildora Shodmonova Xazaratqul qizi,
Abdulla Oripov nomli ijod makkabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**

Hayotda har bir insonning o'z hayoti va haqiqat yo'li bo'lganidek, badiiy adabiyotda ham har bir ijodkorning o'z ovozi va o'z mahorat maktabi bor. Shoira Halima Xudoyberdiyeva she'riyati ham o'ziga xos jihatlari bilan badiiy adabiyotda ajralib turadi

Badiiy adabiyotda ijodkor va yozuvchining ma'naviy yetuklikka, ijodiy kamolotga erishishi uning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, samimiy tuyg'ularni o'zida mahorat bilan aks ettirgan poetik asarlarni yarata olishi bilan bog'liq. O'zbekiston Xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyeva ijodga ko'ngil ermag'i deb emas, ko'ngil masalasi, hayot falsafasi sifatida qaradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, uning she'rlari xalqining qalbiga yo'l topib mehr-muhabbatiga sazovor bo'ldi hamda adabiyot bo'stonining xushbo'y guliga aylandi.

Halima Xudoyberdiyevaning ko'pgina she'rlarida, insonga xos turli tuyg'ular: dard-iztiroblar, sog'inch, azob, sevinch, shukronalik, afsus, tushkunlik, qo'rquv, ertangi kunga ichonch tuyg'ulari juda ta'sirli va yorqin aks ettirilgan. Shoiraning mahorati shundaki, u kitobxon qalbiga shu tuyg'ularni yuqtira oladi va uni o'ziga tuyg'udosh qiladi.

Mundarija

| Nº | Muallif | Maqola, tezis nomi | Bet |
|---|-------------------------------------|--|------------|
| 1-SHO‘BA: HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE’RIYATINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI | | | |
| 1 | S.Maksumova. | Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida jonlantirish san’ati | 3 |
| 2 | O. Fayzullayeva. | Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida ona vatan mavzusi | 6 |
| 3 | M. Olimjonova. | She’riyatdagi o‘zga xos badiiylik | 11 |
| 4 | X. Xaitov. | Halima Xudoyberdiyeva – qalblar shoirasi | 14 |
| 5 | Ch.Saydazzamova. | Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida ifoda tasvir vositalarining qo‘llanilishi | 17 |
| 6 | Z.To‘ychiyev. | Halima Xudoyberdiyevaning adabiy-estetik qarashlari va mavzu rang-barangligi | 20 |
| 7 | D.G‘aznayeva. | Halima Xudoyberdiyeva ijodida talmeh san’ati namunlari | 23 |
| 8 | G.Sayfiddinova. | Halima Xudoyberdiyeva she’riyatining badiiy xususiyatlari | 28 |
| 9 | B.Rahimova. | Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida go‘zal tashbehlari | 30 |
| 10 | A.Fayzullayev. | Halima Xudoyberdiyevaning bag‘ishlov she’rlari badiiyati | 34 |
| 11 | M. Ahmadqulova. | Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida inson ruhiyati | 38 |
| 12 | L.Ziyodullayeva. | Halima Xudoyberdiyeva ijodida tazod san’atining qo‘llanilishi | 42 |
| 13 | G.Ummatova. | Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida anafora san’atining qo‘llanilishi | 46 |
| 14 | Sh. Bahromova. | Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida tabiat tasviri | 50 |
| 15 | S.Mamadaliyeva. | Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida nido san’ati haqida | 53 |
| 16 | S.Abdumo‘minova. | Halima Xudoyberdiyeva poetikasining ba’zi bir masalalari | 56 |
| 17 | M.Xolmirzayeva. | Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida qofiya | 60 |
| 18 | H.Safarova. | Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida she’riy san’atlarning qo‘llanishi | 64 |
| 2-SHO‘BA: HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIYOTI TADQIQI | | | |
| 19 | M.Davronova, F.Yusupova. | Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida shoirlilik qismati | 68 |
| 20 | T.Mamatxalikova. | Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida ayol obrazi talqini masalasi | 73 |

| | | | |
|----|-------------------------|--|----|
| 21 | M.Yusupova. | Halima Xudoyberdiyevaning publitsistik mahorati | 76 |
| 22 | S.Shukurova. | Halima Xudoyberdiyeva ijodida biografizm ifodasi | 79 |
| 23 | Sh.Mamadaliyeva. | Halima Xudoyberdiyeva: mehr va jasorat | 82 |
| 24 | O‘. Qobilova. | She’riyatda ijtimoiylik talqini | 85 |
| 25 | Z. Tojiboyeva. | Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida mavzu va mazmun masalasi | 87 |
| 26 | S.Po’latova. | Halima Xudoyberdiyeva ijodida tarixiy shaxslar talqini | 90 |
| 27 | R. Mamadaliyeva. | Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida insoniy tuyg‘ular aksi | 94 |
| 28 | M. Axmadova. | She’riyatda vatan va millat talqini | 97 |

3-SHO‘BA: O‘ZBEK MUMTOZ VA ZAMONAVIY ADABIYOTINING DOLZARB MASALALARI

| | | | |
|----|--|--|-----|
| 29 | O.Fayzullayeva. | To‘ra Sulaymon she’riyatida xalqchillik | 100 |
| 30 | A. To‘ychiyev. | Nurali Qobul ijodida sayyor obrazlar tasviri | 105 |
| 31 | O‘.Ro‘ziyeva. | Poetik so‘z qudrati | 108 |
| 32 | F. Mirvohid. | Ernest Seton-Tompson hikoyalarida hayvonlarning tasviri | 112 |
| 33 | Sh.Qarshiyeva. | Nasimxon Rahmonovning adabiy-ilmiy qarashlari | 114 |
| 34 | B. Ro‘ziboyev, G.Ro‘ziboyeva. | Talqinda yozuvchi individualligi | 119 |
| 35 | O.Normurodov. | Latofatlar anda base ko‘p erur | 124 |
| 36 | S.Babayeva. | “Bilga xoqon” romanida badiiy til va tarixiy tafakkur masalasi | 126 |
| 37 | N.Normurodova. | G‘afur G‘ulomning urush davri poeziyasida lirik qahramon masalasi | 131 |
| 38 | D.Qosimova. | Ayol ijodkorlarning badiiy asarlarida ayollar obrazi talqini | 136 |
| 39 | F.Karimov. | Omon Muxtor romanlarida g‘oyaviylik va mavzular rang-barangligi | 140 |
| 40 | N. Mamatova. | O‘zbek adabiyotida Yusuf obrazi talqiniga doir mulohazalar | 150 |
| 41 | V.Ahmadqulova. | To‘ra Sulaymon she’rlarida badiiy tasviriy vositalarning qo‘llanilishi | 153 |
| 42 | M.Ibrohimova. | Sirojiddin Sayyid she’rlarida talmeh san’atining qo‘llanilishi | 160 |
| 43 | F. Egamberdiyeva. | “Jinlar bazmi” hikoyasida yozuvchi fantaziysi | 162 |

4-SHO‘BA: HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODI VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI MASALALARI

| | | | |
|----|--|---|-----|
| 44 | D.Yusupova. | Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining til xususiyatlari tahlili (fe'l so'z turkumi misolida) | 165 |
| 45 | D.Shodmonova. | Halima Xudoyberdiyeva adabiy merosining leksik xususiyatlari | 169 |
| 46 | I.Abdurashidova, D.Musurmonova. | O'quvchilarning matn yaratish qobiliyatlarini rivojlantirish (Halima Xudoyberdiyeva ijodi misolida) | 174 |
| 47 | G.Berdiyeva, S.Bekto'rayeva. | Adabiyot darslarida Halima Xudoyberdiyeva ijodini o'rgatish usullari | 177 |
| 48 | N.Jaylovboyeva. | Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida maxsus leksik boyliklar | 179 |
| 49 | R.Olimova. | Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida onomastik dialektal so'zlar | 183 |
| 50 | D.Abduvohidova. | Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida poetik sintaksis | 185 |
| 51 | Z. Mingboyeva. | Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida assonans takrori | 190 |

ILMIY NASHR

XX ASR VA ZAMONAVIY ADABIYOT: TAHLIL VA TALQIN MASALALARI

(Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari)

2022-yil 19-may

| | |
|-------------------------|---|
| Mas’ul muharrir: | Obidaxon Fayzullayeva |
| Texnik muharrir: | Baxtiyor Yakubov |
| Sahifalovchi: | Shoxida Muqumova |
| Dizaynerlar: | Elyor Xolmurodov, Qahramon Mamayev |

Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga, mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Ilmiy maqolalar mualliflarining matni asosida chop etilgan.

Terishga 11.05.2022-yilda berildi. Bosishga 14.05.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/8. Nashr bosma tabog‘i 12,25. «Times New Roman» garnirutasi. Ofest usulida bosildi. Buyurtma № 103. Adadi 55 nusxada. Erkin narxda.

«Sirdaryo Print» Mas’uliyati cheklangan jamiyatida chop etildi.
Manzil: Sirdaryo sh., O‘zbekiston ko‘chasi 92-uy.